



lingvistik bilimlarni chuqur o’zlashtirish, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, ijtimoiy-madaniy tafovutlarni anglash va ularga hurmat bilan yondashish qobiliyatini rivojlantiradi.

O’zbek va jahon adabiyotlarining qiyosiy tahlili shuni ko’rsatdiki, kommunikativ metodning ustuvorligi barcha tadqiqotlarda alohida ta’kidlanadi. Hymes, Savignon, Byram va Kramschning nazariyalari bilan bir qatorda, mahalliy olimlar Qahhorova va Xodjueva tadqiqotlari ham ushbu yondashuvning dolzarbligini isbotlaydi.

Shunday qilib, kommunikativ yondashuv xorijiy til ta’limida o’quvchilarning intermadaniy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni global jamiyatda faol, tolerant va madaniyatlararo muloqotga ochiq shaxs sifatida shakllantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahhorova, A. (2019). *Xorijiy til o’qitishda kommunikativ yondashuvning samaradorligi*. Toshkent: O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti nashriyoti.
2. Xodjueva, G. (2021). *Til ta’limida intermadaniy kompetensiyani shakllantirish muammolari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Hymes, D. (1972). *On Communicative Competence*. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin.
4. Savignon, S. J. (2002). *Communicative Language Teaching: Linguistic Theory and Classroom Practice*. New Haven: Yale University Press.
5. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters.
6. Kramsch, C. (1993). *Context and Culture in Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.
7. Canale, M., & Swain, M. (1980). *Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing*. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.

“INLUZIV TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNI HAL ETISH YO’LLARI”

Ortiqov Rustamjon

Farg’ona Davlat Universiteti (FarDU) Ingliz Tili O’qituvchisi (EFL teacher)

E-mail: rortiqov90@gmail.com

Soliyeva Dildora – Farg’ona Davlat Universiteti (FarDU) 4-kurs talabasi

Farg’ona, O’zbekiston

E-mail: soliyevadildora57@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari, uning mohiyati, maqsadi va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Bugungi kunda har bir bolaga, shu jumladan jismoniy, aqliy yoki sensor cheklovlari bo’lgan o’quvchilarga ham teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish masalasi butun dunyo ta’lim tizimining markaziy yo’nalishiga aylangan. Inklyuziv ta’lim – bu faqat alohida ehtiyojli bolalarni umumiy ta’lim muhitiga kiritish emas, balki har bir o’quvchi shaxsining o’ziga xosligini tan olgan holda, ularning o’qish, rivojlanish va ijtimoiylashuviga qulay sharoit yaratish tizimidir. Maqolada inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, xalqaro tajribalar, milliy qonunchilikdagi yondashuvlar, pedagoglarning roli hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, maxsus metodik qo’llanmalar yaratish, o’quv muassasalarini texnik va didaktik jihatdan moslashtirish zarurati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot davomida inklyuziv muhitda o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida empatiya, bag’rikenglik, ijtimoiy moslashuv va hamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati ko’rsatib o’tiladi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning muhim sharti sifatida davlat siyosati, mahalliy boshqaruv organlari, o’qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning birgalikdagi mas’uliyati alohida e’tirof etilgan. Maqolada ilg’or xorijiy tajribalar tahlili asosida O’zbekistonda inklyuziv ta’limni yanada takomillashtirish bo’yicha metodik, tashkiliy va psixologik tavsiyalar beriladi.

Kalit so’zlar: Inluziv ta’lim, dolzarb masalalar, ta’limga kirish imkoniyati, pedagogik strategiyalar, ijtimoiy inklyuziya

CURRENT ISSUES IN INCLUSIVE EDUCATION AND WAYS TO ADDRESS THEM

Ortiqov Rustamjon-english language teacher (FarSU)

E-mail: rortiqov90@gmail.com



Soliyeva Dildora-4th year student (FarSU)
Fergana Uzbekistan
E-mail: soliyevadildora57@gmail.com

Abstract: This scientific article explores the current issues in inclusive education, its essence, objectives, and practical significance. Today, ensuring equal educational opportunities for every child, including those with physical, intellectual, or sensory impairments, has become a central focus of global education systems. Inclusive education is not merely about integrating students with special needs into general education settings; it is a system that recognizes each student’s individuality and creates favorable conditions for their learning, development, and socialization. The article analyzes the theoretical foundations of inclusive education, international experiences, approaches in national legislation, the role of educators, and socio-psychological adaptation processes. Additionally, the necessity to enhance teacher professional development, create specialized methodological guides, and adapt educational institutions technically and didactically is scientifically highlighted. The research emphasizes the importance of developing empathy, tolerance, social adaptation, and collaboration between teachers and students in an inclusive environment. A crucial condition for the development of inclusive education is the shared responsibility of state policies, local authorities, teachers, parents, and society. Based on the analysis of advanced international practices, the article provides methodological, organizational, and psychological recommendations for further improving inclusive education in Uzbekistan.

Key words: Inclusive education, current issues, educational accessibility, pedagogical strategies, social inclusion

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Ортиков Рустамжон-преподаватель английского языка (ФарГУ)
Электронная почта: rortiqov90@gmail.com
Солиева Дилдора-студентка 4 курса (ФарГУ)
Фергана Узбекистан
Электронная почта: solievadildora57@gmail.com

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются актуальные вопросы инклюзивного образования, его суть, цели и практическое значение. В настоящее время обеспечение равных возможностей для обучения каждого ребенка, включая учащихся с физическими, интеллектуальными или сенсорными ограничениями, стало центральным направлением системы образования во всем мире. Инклюзивное образование – это не только включение детей с особыми потребностями в общую образовательную среду, но и система, признающая индивидуальность каждого ученика и создающая благоприятные условия для его обучения, развития и социализации. В статье анализируются теоретические основы инклюзивного образования, международный опыт, подходы в национальном законодательстве, роль педагогов и процессы социально-психологической адаптации. Также научно обоснована необходимость повышения профессиональной подготовки учителей, создания специальных методических пособий и адаптации образовательных учреждений с технической и дидактической точки зрения. В исследовании подчеркивается важность развития эмпатии, терпимости, социальной адаптации и сотрудничества между учителями и учениками в инклюзивной среде. Важным условием развития инклюзивного образования является совместная ответственность государственных органов, местного самоуправления, педагогов, родителей и общества. На основе анализа передового зарубежного опыта в статье даются методические, организационные и психологические рекомендации по дальнейшему совершенствованию инклюзивного образования в Узбекистане.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, актуальные вопросы, доступность образования, педагогические стратегии, социальная инклюзия

Kirish

Zamonaviy jamiyatda har bir insonning ta’lim olish huquqi, qobiliyatidan, sog’lig’idan yoki ijtimoiy holatidan qat’i nazar, ta’minlanishi demokratik rivojlanishning muhim belgisi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta’lim tizimi bugungi kunda nafaqat pedagogika fanining, balki butun



jamiyatning dolzarb masalasiga aylangan. Inklyuziv ta’limning bosh maqsadi — barcha bolalarga bir xil ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ularning ijtimoiy hayotda to’liq ishtirok etishini ta’minlash, nogironlik yoki rivojlanishdagi farqlarni to’siq sifatida emas, balki insoniyat xilma-xilligini ifodalovchi boylik sifatida qabul qilishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda: maktablar va maktabgacha ta’lim muassasalari bosqichma-bosqich moslashtirilmoqda, maxsus ehtiyojli bolalar uchun individual ta’lim dasturlari ishlab chiqilmoqda, pedagoglar esa inklyuziv metodikalarga o‘rgatilmoqda.[1] Bunday yondashuv ta’limda insonparvarlik, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi. Inklyuziv ta’lim shunchaki maxsus ehtiyojli bolalarga yordam berish emas, balki barcha o‘quvchilarda bag‘rikenglik, insonparvarlik, bir-birini tushunish va hurmat qilish kabi muhim fazilatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy jarayondir.[2] Shu bois, inklyuziv ta’limni rivojlantirish har bir o‘qituvchidan o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, yangi metodlarni o‘zlashtirish, har bir bola uchun individual yondashuvni ishlab chiqish mahoratini talab etadi. Inklyuziv muhitda o‘quvchi o‘zini qabul qilingan, qadrlangan va to‘laqonli jamoa a‘zosi sifatida his etadi, bu esa uning psixologik barqarorligi va ijtimoiy faolligini oshiradi. Shu ma’noda, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish jamiyatning kelajagi, inson qadri va tenglik tamoyillarini ro‘yobga chiqarishning eng muhim garovidir.

Asosiy qism

Inkluziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, har bir talabani individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, teng huquqli ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu nafaqat nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni, balki barcha talabalarning ijtimoiy, psixologik va akademik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bugungi kunda inkluziv ta’limning dolzarb masalalari bir qator asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.[3] Eng avvalo, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini inkluzivlik talablariga moslashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi, chunki ko‘plab maktablar va universitetlarda nogironligi bo‘lgan talabalar uchun sharoit yaratishda muammolar mavjud. Masalan, aravachada harakatlanadigan talabalar uchun ramkali eshiklar, maxsus liftlar, sensorli panel va boshqa qulayliklarning yetishmasligi ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida ta’lim muassasalarini zamonaviy infratuzilma bilan ta’minlash masalasi ayni paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, pedagog kadrlarning inkluziv ta’limga tayyorligi muhim masala sifatida namoyon bo‘ladi, chunki ko‘plab o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik metodlar, individual yondashuv va maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo‘yicha yetarli malakaga ega emas. Shu bois, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, maxsus treninglar va seminarlar orqali ularni inkluziv pedagogika metodlari bilan tanishtirish bugungi kunda alohida e’tibor talab qiladi.[4] Pedagoglarning bilim va malakasi talabani ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy va psixologik muhitni yaratish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega, chunki inkluziv ta’limning samarasi nafaqat jismoniy sharoitlar va o‘qituvchi malakasiga, balki sinf va maktabning umumiy ijtimoiy-madaniy muhitiga ham bog‘liq. Talabalar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantirish, diskriminatsiya va stereotiplardan holi ijtimoiy muhit yaratish zarur, shuningdek, ota-onalarni ham inkluziv ta’lim jarayoniga jalb qilish va ularning qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.[5] Ta’lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish masalasi ham katta ahamiyatga ega, chunki zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, pedagogik dasturlar, interaktiv ta’lim resurslari va maxsus dasturlar inkluziv ta’limni samarali qilishda katta imkoniyatlar yaratadi, lekin texnologik imkoniyatlardan barcha talabalar, jumladan maxsus ehtiyojli shaxslar teng darajada foydalanishi uchun zarur infratuzilma va dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari, ta’lim standartlari va qonuniy asoslarni takomillashtirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi, chunki ko‘plab mamlakatlarda inkluziv ta’limni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda ularni to‘liq tatbiq etish qiyinchilik tug‘diradi.[6] Shu bois, ta’lim siyosatini takomillashtirish, standartlarni inklusiv yondashuv asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish bugungi kunda zarur bo‘lgan chora-tadbir hisoblanadi. Natijada, inkluziv ta’limning dolzarb masalalari nafaqat moddiy-texnik va pedagogik jihatlar, balki ijtimoiy-madaniy muhit, texnologik qo‘llab-quvvatlash va huquqiy asoslarni mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimi ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali barcha talabalarga teng imkoniyatlar yaratishi, ularni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishi lozim.[7]

Xulosa

Inkluziv ta’limning dolzarb masalalari va ularni hal etish yo‘llari zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligi va barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalarining moddiy-



texnik bazasini zamonaviy talablarga moslashtirish, pedagog kadrlarni inkluziv yondashuvlar bo'yicha tayyorlash, ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish, texnologik imkoniyatlardan foydalanish va qonuniy asoslarni mustahkamlash kabi masalalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning har biri ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[8] Inkluziv ta'lim orqali barcha talabalarga teng imkoniyatlar yaratish, ularni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, shuningdek, stereotiplar va ijtimoiy to'siqlardan holi ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta'lim resurslari va pedagogik dasturlar inkluziv ta'limni yanada samarali qiluvchi vositalar sifatida muhim o'rin tutadi, lekin ularning barcha talabalarga teng taqsimlanishi va qulaylik yaratishi ta'minlanishi zarur. Inkluziv ta'limni rivojlantirish orqali nafaqat nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarning, balki barcha talabalar va o'qituvchilarning ijtimoiy va pedagogik rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi. Shunday qilib, inkluziv ta'limning dolzarb masalalarini hal etish jarayoni kompleks va uzluksiz yondashuvni talab qiladi, bu esa ta'lim tizimini yanada adolatli, samarali va barqaror qiluvchi muhim qadam sifatida namoyon bo'ladi, hamda har bir talabaning o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga sharoit yaratadi.[9]

References

1. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). Improving schools, developing inclusion. Routledge.
2. Armstrong, F. (2010). Inclusive education: Policy, contexts and comparative perspectives. Routledge.
3. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. SAGE Publications.
4. Loreman, T., Deppeler, J., & Harvey, D. (2010). Inclusive education: Supporting diversity in the classroom. Routledge.
5. Mittler, P. (2000). Working towards inclusive education: Social contexts. David Fulton Publishers.
6. Norwich, B. (2008). Dilemmas of difference, inclusion and disability: International perspectives. Routledge.
7. UNESCO. (1994). The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Paris: UNESCO.
8. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and education. Paris: UNESCO Publishing.
9. Vlachou, A. (2010). Education, inclusion and social justice. Cambridge Scholars Publishing.
10. Wright, P., & Dyson, A. (2012). Inclusive education: Principles and practices. Bloomsbury Academic.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA GEOMETRIYAGA OID FAZOVIIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
zn.ortiqova@gmail.com

Qodirova Mubinaxin Zuxriddin qizi Farg'ona davlat universiteti magistranti
qodirovamubinaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida geometriyaga oid fazoviy tasavvurlarni shakllantirish jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada o'quvchilarning fazoviy tasavvur va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda innovatsion metodlar, interaktiv topshiriqlar va ijodiy yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Natijada, geometrik tushunchalar orqali o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va tizimli fikrlashni shakllantirishning samarali yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: geometriya, fazoviy tasavvur, kreativ fikrlash, boshlang'ich ta'lim, innovatsion metod.

DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN THE PROCESS OF FORMING SPATIAL ILLUSTRATIONS ABOUT GEOMETRY IN PRIMARY GRADE STUDENTS

Ortikova Zulfiya Nurmakhamatovna

Fergana State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences,
zn.ortiqova@gmail.com